

BOSHLANGICH SINF ӮQUVCHILARIDA ONA TILI DARSIDA LEKSIKANING O'RNI.

Nazirqulova Shohista Ilhom qizi.

Nizomiy nomidagi TDPU. Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Shodmonqulova Dilorom .

Nizomiy nomidagi TDPU. Boshlang'ich ta'lif fakulteti dotsent.

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitish o'quvchilarni o'zbek tilining imlosi, leksikasi talaffuzi va o'qilishini o'rGANISH muhim bosqichi ekanligi haqida. Shu bois, ushbu maqola ona tili darslarida so'z tarkibi va yasalishini o'rGANISHGA bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: leksika, leksema, lisoniy birlik, leksik ma'no, o'zak va affiksal morfema.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lif muassasalari, xususan boshlang'ich ta'lif o'quvchilari ta'lif tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor axamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining – Ta'lif to'g'rsidagi qonunga muvofiq "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlanib, u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirshga yo'naltirilgan. Til fikrni shakllantirishva bayon qilish, taassurot, his-kechinim alarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jam iyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilaming o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rGANISH zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir Leksika(yun. lexis — so'zga oid, lug'aviy) — tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til Leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlarning

paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda Leksika boyib boradi. barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi Leksikasi ham tezlik bilan o‘sib, taraqqiy etdi. O‘zbek tili leksikasiga baynalmilal so‘zlar keng ko‘lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. O‘zbek tili Leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam, shuningdek, o‘z qatlam tarkibida umumturkiy so‘zlar va ulardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlar mavjud. O‘zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so‘zlar bor .

O‘zbek tilining taraqqiyoti prosessida uning barcha sohalarida ma’lum o‘zgarishlar yuz berdi. Bunday o‘zgarishlar ayniqsa, uning leksikasi uchun juda harakterli hisoblanadi. Bunda, birinchidan, tildagi ayrim so‘zlarning eskirishi, istemoldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, tilda yangi so‘zlarni paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu ikkala hodisa ham tildagi ma’lum ob’ektiv sabablar asosida ro’y beradi. Hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan so‘zlarning jami eski qatlam (eski leksika) , yangi so‘zlarning jami yangi qatlam (yangi leksika) deyiladi. Na eskilik, na yangilik bo‘yog’iga ega bo’lgan so‘zlar betaraf leksika (o’tgan asrning ikkinchi yarimidan keyin, bu qatlam zamonaviy leksika deb yuritilgan). Demak, o‘zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo’lib o’rganish ma’qul hisoblanadi. R.R.Sayfullayeva va boshqalarning „ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida keltirilishicha , hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining asosini betaraf leksika tashkil etib, bu leksika umumiste’mol leksika, qo’llanilishi doirasi chegaralanmagan leksika, faol leksika atamalari bilan ham yuritiladi.Ammo bulardan neytral leksika atamasini ishlatish leksemani tarixiylik belgisi asosida tasniflash nuqtayi nazaridan to’g’riroq ekanligi izohlangan. Zero, na eskilik, na yangilik bo‘yog’iga ega bo’lgan so‘z faol yoki umumiste’mol so‘zlar ham emas. Demak, faol yoki nofaol, umumiste’mol yoki qo’llanilish doirasi chegaralangan bo’lishidan qat’i nazar, eskilik va tilimizga mansub barcha yangilik bo‘yog’iga ega bo’lmagan leksema hozirgi o‘zbek tilining betaraf leksikasidir. Huddi shu qatlamni zamonaviy qatlam sifatida qabul qilgan professor SH.Shoabdurahmonov ham eskilik yoki yangilik bo‘yog’iga ega bo’lmagan so‘zlar zamonaviy leksikani (zamonaviy qatlamni) tashkil etishi haqida fikr yuritgan.Ba’zi atamalar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo’llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so‘ziga aylanadi. Masalan, o‘qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O‘tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqno aldab yuruvchi gadoylar , o‘g‘rilar, firibgarlar o‘z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o‘zlariga tushunarli so‘z va iboralardan foydalanganlar.

Tilda sinfiy ayirmalikni ko`rsatib turadigan bunday so`zlar «sinfiy dialektning so`zлari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruqlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so`z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliv mon, shoe' qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne'mati jannat (yor, mahbuba), shavaqqu' aylang (umid bilan kuting), tanzil (foyda).

O`g`rilar, qimorbozlar orasida qo`llanadigan so`zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militcioner), bedana (to`pponcha), xitola (o`g`irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo`lgan: yakan (pul), joyi (yo`q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so`m), saru nimsar (bir ming besh yuz so`m), kapara (olti ming so`m). Leksika va leksikologiya haqida umumiyl tushuncha. So`z tilning asosiy va markaziy birligi hisoblanib, tildagi so`zlarning jami leksikani (lufat tarkibini) tashkil etadi. Tilshunoslik fanining til leksikasini o`rganuvchi bo`limi leksikologiya (grekcha lexis-«so`z»va logos-«ta`limot») deyiladi.

Tilning lufat tarkibiga aloqador barcha birliklar (mas., so`zlar, frazeologizmlar) lufaviy birliklar deyiladi. Lufaviy birliklar anglatgan ma`nolarning umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, ma`lum tematik turlarga bo`linadi. Bunda asosiy vazifani birliklarning lug`aviy. ma`nosi bajaradi. Leksik ma`no esa, yuqorida ta`kidlanganidek, umumlashtirish xususiyatiga egadir.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, o`quvchilarda leksikaga oid bilimlar kichik yoshdagи o`quvchilarining nutqiy qobiliyatları va aqliy tafakkurini rivojlantirish xizmat qilar ekan, o`quvchilarda leksikaga oid bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ta’lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta’limi tizimini yanada rivojlantirish va oliv ta’limning bakalavr yo‘nalishiga qabul bo‘yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan” yig‘ilishdagи nutqidan.
2. Boshlang’ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim Standarti. boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2006. 5-son.
3. Boshlang’ich ta’lim lakomillashtirilgan O‘quv dasturi. “Boshlang’ich ta’lim jurnali. 2006. 5-son
4. TG'afforova, Sh.Nundlayeva. O‘qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodi
5. JDPI. F.f.d (PhD). B.Boltayeva .” Boshlang’ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” maqolasidan.

6. N.Muslimovning “ Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o’quv qo’llanma.
7. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан доктори ... дисс.- Тошкент: ТДПИ, 2005
8. R.R.Sayfullayeva va b. „Hozirgi o’zbek adabiy tili”.- Toshkent. 2020.
9. Sayfullayeva.R. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent, 2020. 117-121- betlar
10. Mengaliyev.B, Raupova.L, Qurbanova.M. Leksikologiya. Toshkent. 2020